



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Boltayeva Barno Isakulovna.

JDPU. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi
kafedrası dotsenti, f.f.d.(PhD). +99893 3005579

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish masalasi to'g'risida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема повышения орфографической грамотности учащихся в начальной школы на уроках родного языка.

Annotation: This article discusses the issue of improving students' spelling literacy in primary school native language classes.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, husnixat, konsepsiya, yozuv, harf elementlari, adabiy-nutqiy kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yin.

Ключевые слова: Компетентность, каллиграфия, понятие, письмо, элементы письма, литературно-речевая компетентность, начальное образование, дидактическая игра.

Key words: Competence, courtesy, concept, writing, letter elements, literary and speech competence, elementary education, didactic game.

Kirish

Ona tili fani yosh bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi





faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotchi Ayzada Yembergenovanning ta'kidlashicha: "Milliy maktab rivojlanishining barcha bosqichlarida savodli yozuvga o'rgatish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Imloviy savodxonlik masalasini yechish eng dastlab boshlang'ich sinflardan boshlanadi. Negaki, boshlang'ich sinflardan boshlab lisoniy bilimlar berilib, ularning to'g'riligi va mustahkamligi o'quvchilarning keyingi bilim olishlarida katta rol o'ynaydi. Bu o'z navbatida texnik va kaligrafik ko'nikmalarga tayanadi.¹

Husnixat bola ongi o'sishiga, bilimi yaxshi rivojlanishiga ta'sir qiladi. O'quvchilar dastlab yozuv malakasini egallash uchun daftarga harf elementlarini yozishni boshlaydigan bu boladan ham jismoniy, ham aqliy, ham ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi. Olimlarimiz qo'lda yozishning juda ko'p foydali jihatlarini keltirib o'tishgan. Masalan, qo'lda yozgan insonlarning miya faoliyati yaxshi ishlaydi, jismoniy jihatdan muskullar faoliyati yaxshilanadi, qo'l matorikasi yengillashadi, fikrlash qobiliyati oshadi, dunyoqarashi kengayib boradi. Shuningdek, ko'p yozgan insonning xotirasi ham kuchayadi, yozilgan ma'lumotlarning yodda saqlab qolinish jarayoni ham yuqori bo'ladi.


Yozma nutqni o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida izlanish;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida izlanish;
- 3) bog'lanishli nutq ustida izlanish.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi.

Yozma nutqdagi nuqsonlar harflar shaklini noto'g'ri idrok etishga aloqador bo'lishi ham mumkin. Bunda bola yozilishi jihatidan o'xshash harflarni, ularning elementlarini adashtirib yuboradi. L.F.Spirova va A.V.Yastrebovalar boshlang'ich maktab o'quvchilari nutqida kuzatiladigan yozma nutqdagi kamchiliklarni butun nutq sistemasi ustida uch bosqichda ish olib borish orqali bartaraf

¹ Yembergenova A.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi. Ped.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Nukus, 2023. 10-bet.





etishni tavsiya etadilar. Birinchi bosqichda fonetika-fonematik komponent ustida quyidagi ishlarni o'tkazish ko'zda tutiladi:²

1. So'zning tovushlardan tuzilishi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;
2. Fonematik uquv hamda analiz-sintez malakalarini rivojlantirish;
3. Talaffuz kamchiliklarini bartaraf etish.

Birinchi bosqichda bolalar diqqati, xotirasini rivojlantirish, ularni o'z-o'zini boshqarish, tekshirib borishga o'rgatish, savollarga aniq, to'liq javob berishga o'rgatish talab etiladi. Ikkinchi bosqichda leksiko-grammatik kamchiliklarni bartaraf etish, eshitish idrokini rivojlantirish ishlari olib boriladi. Uchinchi bosqichda o'rgatilgan tovushlarni mustahkamlash, ularni bola nutqiga kiritish, analiz qilish malakalarini rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi. Shunday qilib, yozma nutqdagi kamchiliklar nihoyatda murakkab nutq nuqsonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu kamchiliklarni oldini olish ishlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilishi darkor. Bundan bolaning og'zaki nutqini o'stirish fazoviy idrokini, xotirasi, diqqati, analiz va sintez qilish faoliyati, nutqini tahlil qilish, lug'at ustida ishlash, grammatik komponentini rivojlantirish, og'zaki nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etish, nozik qo'l harakatlarini rivojlantirish ayniqsa muhimdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nutq ichki va tashqi ko'rinishiga ega. Ichki nutq odamning o'z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o'z-o'ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi.

Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir farqi shuki, yozma nutqni ko'ramiz va o'qiymiz. Yozma nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yig'ilgan materialni sistemalashtirish, reja tuzish, ishning xomaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab rivojlantirish va oqqa ko'chirish lozim. To'g'ri va ifodali gapirish har bir o'qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo'lib qolgan bugungi vaqtda

²<https://cyberleninka.ru>





o'quvchilarning nutqini o'stirish masalasi o'quv-tarbiya tizimining eng dolzarb muammolaridan biri deb qaralmog'i joiz.

Yozma nutqni takomillashtirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun tomonidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilar va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon etish o'quvchidan kattta mas'uliyatni talab qiladi. Shu bois nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.

O'quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat, sezgi, idrok etish va xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etganligini ko'ramiz. Chiroyli yozish jarayonida ko'rish va eshitish sezgilari idrok qilinadi.

Chiroyli yozuvga o'rgatishda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish;
2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish;
3. Yozayotganda gavgdani to'g'ri tutish;
4. Daftar va ko'z oralig'ini me'yorda ushlash;
5. O'z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rganish;
6. Harflarni bir-biriga bog'lab yozishga o'rganish;
7. Harflarning balandlik va oralig'ini bir xilda yozish;
8. Harflarning 75 daraja qiyaligini to'g'ri saqlash.

Quyida biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan yozuvga o'rgatish usullarini ko'rib chiqamiz:

1. Namunaga qarab yozish usuli.

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozishdir. Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatib berish lozim. O'quvchilarning vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarini o'z daftarlarida to'g'ri va bexato aks ettirishdir. Doskada yozib ko'rsatilayotgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart. Agar





ayrim o'quvchilar uni ko'ra olmayotgan bo'lsalar, qaytadan takrorlab ko'rsatish lozim. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog'lanishini ko'rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash lozim.

2. Namunaga qarab ko'chirib yozish usuli.

Bu juda eski usul bo'lib, hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. O'quvchilar asosan, harflarning shaklini "Husnixat" kitobidagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish, tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak. Bu o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq hamda o'qituvchining vaqtini tejaydi va unumli ishlash uchun imkoniyat yaratadi.

3. Nusxa ko'chirish usuli.

Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llaniladi. Masalan, o'quvchi F harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, o'quvchi esa uning ustidan yozib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu harfni yozishga ko'nikmasini hosil qiladi. Bunday mashqlar faqat qo'l harakatini o'stirish uchun yordam beradi, xolos. Shuning uchun bu usuldan iloji boricha kamroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. Tasavvur orqali yozish.

Tasavvur orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada yozib ko'rsatgan harf yoki so'zlarni o'quvchilar daftarga qanday yozish kerakligini havoda ko'rsatib beradi. O'quvchilar tasavvur hosil qilgandan so'ng daftarga yozadilar. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishni oshiradi va jismoniy mashq bajarishiga imkon beradi.

5. Xatolar ustida ishlash usuli.

Bu usulni qo'llashdan maqsad har bir o'quvchi o'z xatosini mustaqil topa olishga va uni tuzatishga o'rgatishdir. O'quvchilarga o'z yozuvlaridagi harflarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, qiyaligini, baland yoki pastligini tekshirib chiqish topshiriladi. O'quvchilar birma bir o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni aytib beradilar. O'qituvchi esa kamchiliklarni to'ldirib boradi. O'quvchilar o'z kamchiliklarini yozuv daftari yoki husnixat kitobiga qarab taqqoslash orqali ham tuzatishlari





mumkin. Ko'pchilik o'quvchilarda uchraydigan bir xil xatolarni o'qituvchi doskaga yozib, tahlil qilib beradi

XULOSA

Bilim olishga dastlabki qadamlar tashlanadigan boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarining shakllanishi o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichiga juda kata ta'sir qiladi. Kuzatishlar shuni anglatadiki, oddiy qo'l yozuvi harflar va so'zlar haqida o'rganilgan barcha narsalarni birlashtiradigan perseptiv-motor tajribasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son farmoni va uning 1-ilovasi - // Elektron manba.
2. Yembergenova A.A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy savodxonligini takomillashtirish metodikasi. Ped.fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Nukus, 2023. 52-bet.
3. Qosimova K, Matchanov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Noshir" nashriyoti-2009.
4. Graham S., Xarris R. "Yozish va yozishni rivojlantirishda o'z o'zini tartibga solish va transkripsiya qobiliyatlarining o'rni". Toshkent-2000, "Talim psixologi" nashriyoti.

